

## XURSHID DAVRON SHE’RIYATIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZIDA RUHIYAT TASVIRI

Jinayeva Mahliyo Xaliq qizi

**Alisher Navoiy nomidagi**

**Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20622363>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xurshid Davron she’riyatida tarixiy shaxslar obrazlari orqali inson ruhiyati tasvirining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning Abdulla Qodiriy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodira, Avaz O‘tar, Usmon Nosir, Yunus Emro kabi tarixiy va adabiy shaxslar obrazlariga murojaat qilish orqali milliy xotira, vatanparvarlik, erk va ozodlik, ma’naviy komillik hamda insoniy kechinmalarni ifodalash mahorati yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy obrazlarning ramziy-falsafiy mohiyati va ularning lirik qahramon ruhiyatini ochib berishdagi o‘rni tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xurshid Davron, tarixiy shaxs, obraz, ruhiyat tasviri, lirik qahramon, milliy xotira, vatanparvarlik, badiiy talqin, tarixiylik, she’riyat.

**Annotation.** This article analyzes the artistic interpretation of psychological depiction through historical figures in the poetry of Khurshid Davron. The study examines the poet’s skill in expressing national memory, patriotism, freedom, spiritual perfection, and human emotions through the images of Abdulla Qodiriy, Zahiriddin Muhammad Babur, Nodira, Avaz O‘tar, Usmon Nosir, and Yunus Emre. Particular attention is paid to the symbolic and philosophical nature of historical images and their role in revealing the inner world of the lyrical hero.

**Keywords:** Khurshid Davron, historical figure, image, psychological depiction, lyrical hero, national memory, patriotism, artistic interpretation, historicity, poetry.

**Аннотация.** В данной статье анализируется художественное воплощение внутреннего мира человека через образы исторических личностей в поэзии Хуршида Даврона. Рассматривается мастерство поэта в раскрытии национальной памяти, патриотизма, свободы, духовного совершенства и человеческих переживаний посредством образов Абдуллы Кадыри, Захириддина Мухаммада Бабур, Нодир, Аваза Утара, Усмана Носира и Юнуса Эмре. Особое внимание уделяется символично-философской сущности исторических образов и их роли в раскрытии духовного мира лирического героя.

**Ключевые слова:** Хуршид Даврон, историческая личность, образ, психологизм, лирический герой, национальная память, патриотизм, художественная интерпретация, историзм, поэзия.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik vakili Xurshid Davron milliy adabiyotimiz tarixi va rivojida alohida o‘rin tutadi. Adib butun umr jamiyat hayotining qaynoq quchog‘ida bo‘ldi. U faol shaxs va fuqaro sifatida xalqning bugunida hayot kechirayotgan millatparvar adib yurtimiz tarixini teran biladigan talantli ijodkor sifatida uning o‘tmishini badiiy tadqiq etdi. Bugungi mafkura, g‘oyalar, fikrlar xilma-xilligi zamonida odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish hayotiy ehtiyoj va zaruratga aylandi. Xususan, ulug‘ shoir va yozuvchilarimiz hayoti va ijodi biz uchun ko‘p jihatdan o‘rnak va ular bunyodkor yoshlarimizni vatanparvarlik, millatparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda juda katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida o‘z erki-mustaqilligi

uchun kurashib kelgan matonatli xalqimiz hayoti va shonli tarixining badiiy in'ikosi bo'lgan adabiyoti ham boy va rang-barangligi bilan dunyo tamaddunida alohida o'ringa ega.

Xurshid Davron ijodida tarixiy voqealar va tarixiy shaharlar bilan birgalikda tarixiy shaxslar obraziga ham murojaat qilinadi. Tarixiy obrazlar ko'pincha ramziy shaklda ifodalanadi. Ular jasorat, fidoyilik, iztirob va mas'uliyat timsoli bo'lib, millat boshidan kechirgan sinovlarni aks ettiradi. Masalan, qadimiy qahramonlarning hayotiy tajribalari orqali shoir xalqning tarixiy merosini badiiy tafakkurga tortadi:

O'tgan asrning 70-yillaridayoq shoirning “Qodiriyning so'nggi surati” nomli she'ri matbuot yuzini ko'rgan. Yozuvchi suratidagi mung, alam, hasrat, xalq dardi bilan yonishga tayyor turgan shoir diqqatini o'ziga tortadi. Qodiriyning g'amginligi sabablarini bir-bir o'zidan so'raydi. Kumushbibi, Otabek qissasini so'ylab bermoqchimisan yoki o'z darding bilan o'rtoqlashmoqchimisan, deya murojaat qiladi. Xalqi dardini ochiq-oshkora aytish mumkin bo'lmagan davrlarda shoir jamiyatda ko'rgan nohaqliklari uchun hasrat chekishdan boshqasi qo'lidan kelmaydi. Shunday g'amzada holatlarda yolg'iz panoh, g'amgusor o'sha Qodiriy surati. Shoir she'rini “Qodiriyning so'nggi surati” deyishida ham ramziy ma'no bor. Qodiriyning surati hozir ham bor, demak u so'nggisi emas ekan. Anglash mumkinki, gap surat haqida emas, balki Qodiriyning so'nggi so'zi – asarlari haqida. Shoir suratdan panoh izlamaydi, yozuvchi adabiy merosida, yozib ketgan satrlardan dardiga malham izlaydi.

Tunlar jimjit,  
Uzundir garchand,  
Tugamaydi dillar suhbat.  
She'r o'qisam tinglaysan o'ychan,  
Qodiriyning so'nggi surati.

Yo'llarimda uchrasa xato,  
Qiynab qo'ysa elim hasrati,  
Kelib sendan tilayman panoh  
Qodiriyning so'nggi surati.

Shoir tun jimjit va uzun bo'lsada, dillar suhbatini tugamasligini, o'qilgan har bir she'rni “surat” o'ychan tinglashini, endi ijodkor yo'lida muammo, xato uchrasa undan panoh so'rashini iltijo qilmoqda.

Tarix faqat raqam va sanalar, ma'lum shaxslarning biografik ma'lumotlaridan iborat emas, u ajdodlarimizning tushuncha va tasavvurlarini, e'tiqodu dunyoqarashlarini, bizga meros qoldirgan vatan atalmish maskanning sinoatu saboqlarini, mehru saxovatini o'z bag'rida mujassam etgan murakkab jarayon. Namoz Botir ham ana shu jarayondagi kelajak avlod tayanishi mumkin bo'lgan muhim tarixiy shaxslardan biri. Shu bois shoir Namoz Botir obraziga qayta-qayta murojaat qiladi. Namoz Botir haqidagi she'rlariga adabiyotshunoslar ko'p murojaat qilgani uchun biz bu she'rga to'xtalib o'tirmadik. Biz bu faslda asosan “Ey, tilim, ey, elim, ey, ona tuproq” sonetlar turkumiga murojaat qilamiz. Sonetlar turkumiga kiritilgan “Zahiriddin Muhammad Bobur” she'rida buyuk saltanatni yurtining bir chimdim xoku xasiga alishishga tayyor lirik qahramonning ruhiy holati aks etgan.

Sen borsan, chidayman dilim ohiga,  
Panipatmas, armon qo'zg'atar titroq.  
Bir umr zordirman yurtim xokiga,  
Meni olib ketgin, ey ona tuproq.

Shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tilidan uni Panipat jangi emas, yurt sog'inchi titroqqa solishini aytadi. Bobur ijodidan ma'lumki, haqiqatda, u bir umr yurt sog'inchida yashadi. Shu sabab ham u jafo, ayriliq, vatangadolik mavzularini asarlarida aks ettirdi.

Alishardim butun saltanatimni

Yurtimning bir chimdim xoku xasiga,

Turkiston bog'larin xush nafasiga. (64-b.)

Xurshid Davron yaratgan lirik qahramon butun saltanatini o'z yurtining tuprog'iga, xasiga, havosiga almashishga tayyor ekanligini aytadi.

“Nodira”da esa shoir:

Alam tunlarining qonli zardobi

Qora sochlarimni bo'yadi oqqa,

Yonganda o'limning qora oftobi

Men faqat ishondim ona tuproq, - deya ona vatanga, uning tuprog'iga bo'lgan muhabbat, ishonch, sadoqat mavzusini davom ettiradi.

Ishondim umidim unutilmas deb,

Dilimdan tilimga chiqqan ovoza.

Tuproqqa ishondim qolgan she'rimni,

Xuddi ishongandek oppoq qog'ozga.

Tilshunoslikda sinekdoxa tushunchasi mavjud. Bu tushuncha yunoncha so'zdan olingan bo'lib, birga nazarda tutmoq, birga o'ylamoq degan ma'noni anglatadi. Metonimiya (majoz)ning ko'rinishlaridan biri. Sinekdoxada ham ma'no ko'chishi o'xshashlik, bog'liqlikka asoslansada, bu yerda ko'chish ob'yektlari o'rtasidagi miqdoriy belgi yetakchilik qiladi. Butun narsaning nomini uning qismi nomi bilan va aksincha, qism nomini butun narsaning nomi bilan atash, ko'plik sondagi so'z o'rniga birlik sondagi so'zni qo'llash yoki aksincha ishlatish. Ba'zan jins-tur munosabatidagi so'zlarning bir-biri o'rnida qo'llanishi va boshqa Sinekdoxa badiiy adabiyotda asarning ta'sirchanligi va emotsionalligini oshirishda yoki subyektiv munosabat bildirishda muhim vosita hisoblanadi.

Yuqorida biz tahlilga tortgan she'rlarda ana shu holatni ko'rishimiz mumkin. Chunki she'rlar mazmunidan tuproq deganda shoir vatanni nazarda tutayotganini anglashimiz mumkin. Adib o'z ona vataniga, uning kelajagiga ishonch bildirganligi sabab, men ona tuproqqa ishonaman degan xulosaga kelmoqda.

“Avaz O'tar o'g'li” she'rida yana tarixga duch kelamiz. Tariximizda yuz bergan qatag'on siyosati, millat sha'ni, uning porloq kelajagi uchun kurashgan qo'llarga kishan berilgani haqida so'z boradi. Nurni qidirgan xira ko'zlarga “ana tong” deya tunni ko'rsatgan davr tilga olinadi. Bunday sharoitda donolar suhbatini nodon boshqargani, bobolardan meros qolgan muqaddas bog'ni ming bo'lakka bo'lib, undan laxta-laxta qon to'kkani tasvir etiladi. Avaz O'tar tilidan millatparvarlar taqdiri eslanadi.

“Milat” deb bo'g'ilsa kimki jonhalak,

Unga “jinni” deya tamg'a bosdilar,

“Bizga ilm kerak – ko'zga nur kerak!”

Deganni ayamay dorga osdilar.

Tarixiy va badiiy asarlar orqali jinnixonona ko'p holatda qamoqxona vazifasini bajarganini bilamiz. Ma'lum davrlar millatparvarlar jinni deb e'lon qilinib, jinnixonona qamaldi. Boshqa hollarda esa ilm istaganlar, ilmni targ'ib qilganlar, xalqni, kelajakni savodli qilmoqchi bo'lganlar dorga osildi. Ba'zan yovlar tomonidan, ba'zan o'z xalqi tomonidan qatl qilingan, dorga osilgan

ma’rifatparvarlarni bilamiz. Xurshid Davron bizningcha, Avaz O’tar tilida, uning ruhiy kechinmalarida shu holatni aks ettirgan.

Shuningdek, shoir Boborahim Mashrab, Turdi Farog’iy, Furqat, Ogahiy, Cho’lpon, Oybek, Maqsud Shayxzoda kabi shoirlar ruhiy kechinmalari ham Xurshid Davron tilidan bu sonetda aks ettiriladi.

Ayniqsa, Usmon Nosir fikrlari inson qalbini junbushga keltiradi.

Sen o’zing jon berding, o’zing berding tan,

O’zgalar keltirdi o’limni faqat...

...Juda oz yashadim, haqqim bor, so’ray:

Yashab ulgurmagan kunlarim haqi,

O’chimni, ishqimni, mehrimni beray

Beray yuragimni senga, ey, xalqim!

Otashqalb shoir Usmon Nosirning hayoti va ijodiy faoliyati qanday kechganligini yaxshi bilamiz. Otadan erta ayrilib, o’gay ota qo’lida o’sishi, maktab-internatda o’qishi, oliy o’quv yurtini tinchimas, tinmas, isyonkor qalbi sabab tamomlay olmasligi, juda yosh qamoqqa olinishi, kasalligi va endi kuchga, g’ayratga to’lgan vaqtida olamdan o’tishi kitobxonlarda ham, shoirning o’zida ham alam o’tini yoqishi tabiiy. Bu alam – armon yuki shoir Xurshid Davronga ham tinchlik bermagani aniq. Usmon Nosir yosh bo’lishiga qaramay vafot etgunicha bo’lgan davrda xalqi uchun, yurti uchun, uning kelajagi uchun ijod qildi. Xalq qalbidan joy oladigan sara asarlarni taqdim qildi. Lekin aybsiz aybdorlar safida qamoqqa olingach, hastaligi sabab oqlanishi arafasida vafot etdi.

Usmon Nosir o’zbek she’riyatiga yangi ohang, yangi ruh, yangi obrazlar olib kirdi. U she’rlarida alangali tuyg’ularini jilovlamas, dilida kechayotgan tug’yonlarni susaytirmas, inson ruhiy dunyosini po’rtanalar ichida ko’rsatardi. O’zbek she’riyatida tuyg’ularni bor bo’yicha, dolg’ali ko’rsatish an’anasi yo’q edi. Milliy she’riyatimiz odob, andisha qoliplaridan chetga chiqmaslikka urinardi. Usmon Nosir ana shu qoliplarni buzishga jur’at qilgan birinchi shoir bo’ldi. Shu sabab ham Xurshid Davron Usmon Nosirga bag’ishlangan qismida asosiy e’iborni “yurak”ka qaratadi. Sonetning har bir bandida aytishga ulgurmagan gaplar, yashashga ulgurmagan kunlar, yozishga ulgurmagan she’rlar, olinmay qolgan o’ch, berilmay qolgan ishq, muhabbat haqi uchun xalqiga yuragini berishga tayyorligi aks ettiriladi. “Beray yuragimni senga, ey xalqim”, “Vatan, yuragingni beraqol, deb ayt”, “Bu yurak tinganmas, mangu tinmaydi” kabi satrlar shular jumlasidandir.

“Xurshid Davron Vatanni o’tmish-hozir-kelajak kesimlarida idrok etadi. Uning uchun xalqalarning bori birdek muhim. Shu sabab aytadiki: “O’tmishingga yo’l solib, kelajaging bilib qayturman”. Demakki, shoir Vatan kelajagini o’tmish orqali idrok etayotir va shu sabab ham uni porloq shavkatli o’tmishga munosib qiyofada ko’radi”, – deb yozadi shoir va munaqqid Ulug’bek Hamdam.

Akademik Izzat Sulton Gyotening quyidagi ibratli fikrlariga e’tibor qaratadi: “Shoir uchun bitta ham tarixiy shaxs yo’q: u o’zining ma’naviy dunyosini ko’rsatmoqchi bo’ladi va maqsad uchun ba’zan tarixiy shaxslarni qutlab, ularning nomlarini o’z asarlariga munosib ko’radi”. Yanada konkretlashtirib aytadigan bo’lsak, ijodkor o’z davri dardlariga tarixiy shaxslar orqali davo izlaydi. Xurshid Davron she’riyati ana shu jihatlari bilan ahamiyatli va ibratlidir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Davron X. Bahordan bir kun oldin. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 7.

2. Hamdam U. Yangi o‘zbek she‘riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – B. 179.
3. Sulston I. Adabiyot nazaryasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B. 285
4. I.Haqqulov. She‘riyat – ruhiy munosabat. –Toshkent,1989. – B. 24.
5. <https://kh-davron.uz/ijod/tarjimalar/yunus-emro-sheerlar.html>
6. Q.Mamiraliyev. Istiqlol davri o‘zbek she‘riyatida janrlar modifikatsiyasi. -Toshkent: Anorbooks, 2024. – 208 b.
7. Quvonch Mamiraliyev. (2022). Genre Modification in Uzbek Poetry of The Independence Period. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(3), 115-119. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/1916>